

Oxunjon Madaliev

"Bu dunyoda men bo'lmasam ham"

Visit "[Bu dunyoda men bo'lmasam ham](#)" on MotoLyrics.com

Oqar suvlar oqaveradi,
Bahor gullar taqaveradi,
Kimdir sizga yoqaveradi -
Bu dunyoda men bo'lmasam ham.

Uchib ketgan turnalar qaytar,
Qaldirg'ochlar qo'shig'in aytar,
Kimdir sizga dardini aytar -
Bu dunyoda men bo'lmasam ham.

Suzar samo daryosida oy,
Sochaverar yulduzlar chiroy,
Bo'lardingiz yotga erkatoy -
Bu dunyoda men bo'lmasam ham.

Qolaverar muhabbat mangu,
Yo'qolmaydi shodligu qayg'u,
Boshqa qo'lda yig'laydi chalg'u -
Bu dunyoda men bo'lmasam ham.

Demang, jonim: bu - yomon niyat,
Garchi hayot o'zi - haqiqat:
Men-ku Sizni izlardim faqat,
Bu dunyoda bo'lmasangiz ham...

Visit [Oxunjon Madaliev](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.